

ALISHER NAVOIY “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA QO‘LLANILGAN BADIY SAN‘ATLAR XUSUSIDA

Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Saddiy Iskandariy” dostoni tilida qo‘llanilgan harfiy san‘atlar, bundan tashqari takrir san‘ati haqida so‘z yuritilgan. Nazariy ma‘lumotlar dostonidan keltirilgan misollar bilan asoslangan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, Saddi Iskandariy, adabiyot, san‘at, badiiy asar tili, ma‘naviy va lafziy san‘at, harfiy san‘at, kitobat, arab alifbosi, takrir, she‘riyat, ichki kechinmalar, his-tuyg‘u.*

“Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir”¹.

Sh.M.Mirziyoyev

O‘zbek mumtoz adabiyoti she‘riy san‘atlarning bebaho konidir. She‘rga o‘zgacha jilo, chuqur ma‘no, joziba, ziynat, musiqiylik kabi qator xususiyatlar baxsh etuvchi badiiy san‘atlarni adabiyotshunoslar ikkiga – **ma‘naviy va lafziy** san‘at turlariga bo‘lib o‘rganib kelganlar. Lekin eski o‘zbek yozuvi harflari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan yana bir guruh **harfiy san‘atlar** ham mavjudki, ular **“kitobot”** deya ataladi va hozirda ularni ham alohida tasniflash lozim.

Se‘riyatimizda keng qo‘llanib kelingan ushbu san‘at arab alifbosi harflari shaklidan lirik va epik timsollar chizishda foydalanishni nazarda tutadi. Ma‘lumki, arab alifbosi to‘g‘ri va egri, yoysimon va doirasimon shakllardagi harflardan tashkil topgan. Sharq shoirlari ana shu shakllarga qiyos usuli bilan yondashib muhim ijtimoiy-siyosiy, ma‘rifiy-axloqiy g‘oyalarni ifodalashda mahurat bilan foydalanganlar². Chunki harfiy san‘atlarning amaliyot doirasi kengligidan tashqari, sanoq ko‘pligi va funksional xizmatning muhimligi bilan maxsus o‘rganishga arzigulikdir. O‘tmishda adabiyot namoyandalari mazkur san‘at turining asosi bo‘lmish arab harflarining grafik shakllaridan badiiy san‘at sifatida keng istifoda etganlari ma‘lum. Lutfiy, Atoiy,

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi. <https://kknews.uz/oz/1715.html>

² Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. -Toshkent, -B.104.

Sakkokiy, Jomiy, Navoiy, Boburlar, keyinchalik Mashrab, Munis, Muqimiy, Furqatlar lirik qahramonlarning zohiriy va botiniy qiyofasi hamda ruhiyati bilan bog‘liq holatlarni tasvirlashda arab alifbosining ko‘plab harflaridan, nuqta va xarakterli ayrim so‘zlardan mohirlik bilan foydalanganlar¹. Masalan: Alisher Navoiyning mana bu misralariga esa oshiq ahvoli ruhiyati harflarning grafik shakllari orqali juda ajoyib ifodalangan.

*Jonimdagi jim ikki dolingga fido,
Andin so‘ng alif toza niholingga fido.
Nuni dog‘i anbarin hilolingga fido,
Qolgan ikki nuqta ikki xolingga fido.*

Navoiy asarlarida qo‘llanilgan harfiy san‘atlardan bir qator namunalar keltirishimiz mumkin:

*Qilib zabt ila mahkam o‘g‘ri yo‘lin,
Ulus molidin qisqa qilsun yo‘lin.
Adam aylasun zulm ta‘limini,
“Lam”i jahd etib “lom” ila “mim”ini¹.*

Yana quyidagi misralarga e‘tiborimizni qaratamiz:

*Ikki jonibi har bir andoq yiroq,
Ki qat‘ig‘a azm etmagan yaxshiroq.
Bu yanglig‘ biyik tog‘, aningdekki Qof,
Bo‘lub charxdin yerga tegru shigof².
Aduvning qalin erkonin bilmayin,
Agar bilsa har ko‘zga hech ilmayin.
Sipahdor alar ichra Shaynol o‘lub,
Tahavvurda chun Rustami Zol o‘lub³*

kabi misralar shular jumlasidandir.

Bu singari harfiy san‘atlarning turlari xilma-xil bo‘lib, ular abjad hisobi, yil hisobi, ta‘rix, muammo, tuyug‘, tajnis, muvashshax, lug‘z, chiston kabi janr va san‘atlar bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa harfiy san‘atlardan musahhaf, istixroj va qalb kabi san‘atlar muammo aytish va uning yechimi qoidalari bilan bevosita bog‘liq.

Takrir “takrorlash” ma‘nosini ifodalovchi lafziy san‘at bo‘lib, she‘rda u yoki bu so‘zni takror qo‘llashni nazarda tutadi. Takrorlash vositasida so‘z ma‘nosini, uning mohiyatini ta‘kidlab ko‘rsatish ushbu san‘atning asosiy xususiyati sanaladi.

¹ S.Ashirboyev., I.Azimov., M.Rahmatov., A.G‘oziev. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi. -Toshkent: Ijod nashriyoti. 2006. 100-bet.

² Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -T., 1991. -B.98.

³ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -T., 1991. -B.212.

³ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -T., 1991. -B.155.

Masalan:

*Shahe erdi ul shiymasi adlu dod,
Buyurdi jahon ahlig'a inqiyod.
Aning o'g'li **Doroyi Doro** edi,
Ki andin so'ng ul olamoro edi.*

Yana

*Yana Xusrav ibni Yalosh o'ldi shoh,
Anga yer yuzin tutti xaylu sipoh.
Yana shahlig' etti **Yaloshi Yalosh**,
Kishiga aning birla bo'lmay talosh.
Yana Ardasher ibni Hurmuzg'a kavn,
Yetishti chu ul tengridin topti avn.
Yana qildi **Shopuri Shopur** kin,
Ki ofoq anga bo'ldi zeri nigin.*

Yuqoridagi misralarda Alisher Navoiy alohida olingan so'zlarni takrorlar ekan, shoir shu so'z anglatayotgan ma'noni ta'kidlash maqsadini ko'zlagani bilinib turadi. Jumladan:

*Hamul har tarafdin bir anbuq saf,
Ne anbukim, **ko'h to ko'h** saf.
Qilig'on kibi **lavn-lavnin** bayon,
Tamosho qilur elga bo'ldi ayon*

kabi.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, takrorlar ushbu so'zlarda ifodalanayotgan ma'nolarni, fikrlarni ta'kidlashga xizmat qiladi, ularni kuchaytiradi, kechinmalar, tuyg'ular mavjini, ehtiroslar olamining benihoyaligini aks ettiradi¹ :

*Qilurg'a nekim va'da qilmish vafo,
Munung' birla ham qilmayin iktifo.
Muloyim-muloyim so'rub har nafas,
Aningdekki Xoqong'a **bir-bir** havas.
Bu yanglig' o'n uch gurdi razm ozmun,
Kirib bo'ldilar devvashqa zabun.
Qoshig'a necha pahlavoni zamon,
Yetishmak **hamonu** tutulmoq **hamon**².*

Umuman olganda, mumtoz adabiy asarlarimizning takrorlanmas xazinasini, xilma-xil she'riy va qofiya san'atlarini sidqidildan o'rganish, ulardan har birini

¹ Hojjahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. -Toshkent, -B.101.

² Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -T., 1991. -B. 382.

qo'llanilish darajasi, cheksiz imkoniyatlari, lirik kechinmalar va hayotiy voqeahodisalarni haqqoniy tasvirlashdagi o'rni va ahamiyatini chuqur o'zlashtirish mumtoz adabiyotimiz tarixi haqidagi bilimlarni mukammal egallashgagina xizmat qilib qolmay, balki hozirgi she'riyatimizda ularni mohirlik bilan o'z o'rnida qo'llab milliy qadriyatga yo'g'rilgan istiqlol mohiyati, yoshlarimizning yangicha ma'naviy qiyofalarini yorqin aks ettirish uchun ham juda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. <https://kknews.uz/oz/1715.html>
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -T., 1991.
3. Amonov U. Adabiyot nazariyasi. -Buxoro, 2008.
4. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M., G'oziev A. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi. -Toshkent: Ijod nashriyoti. 2006.
5. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati.-T.,1999.